

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783392>

## “BOBURNOMA” DA FORSCHA FE’LLAR YORDAMIDA YASALGAN MURAKKAB SIFATLAR

**A.Abdualiyev, Z.Abdualiyeva**

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchilari

### ANNOTATSIYA

*Ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagi maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning nafaqat davlatning siyosiy arbobi sifatida balki shu bilan bir qatorda shoir va yozuvchi sifatida fors va turkiy tillaridan o‘z qo‘l yozmalarida qay darajada mohirona foydalanganligini ham yoritib o‘taganmiz. Alohida e‘tiborga sazovor jihati sifatida ushbu tillarning gramatik qullanilishi olingan.*

**Kalit so‘zlar:** “Boburnoma”, konstranstiv lingivistika, turkiyshunoslik, tilshunoslik, birikmalar, affiks, masnavigo‘y, fe‘l turkumi, qo‘shma sifat, sintaktik, morfologik.

Zahiriddin Muhammad Bobur shoir, yozuvchi tarixnafis, buyuk podshoh va va xalqini yaxshi ko‘radigan buyuk davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirgan. Uning tarixiy asari “Boburnoma”da Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Hindiston xalqlari tarixi, u yerda yashagan insonlarning yashash jarayoni, ahvoli va ish faoliyati haqida ma‘lumot beruvchi tarixiy asar hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarlarida Andijondan boshlab Hindistonga qadar uzoq masofadagi har bir shahar va qishloqlarga kirib, o‘sha joyning tabiati, bog‘lari, o‘rmonlari, u yerdagi uy va yovoyi hayvon, parandalari haqida ma‘lumotlar bergan.

Ma‘lumki konstranstiv lingivistika – ya‘ni o‘zaro yaqin masofalarda yashagan xalqlar tilini o‘rganish XX asr ikkinchi yarmidan boshlab jahon, rus tilshunosligi,

turkiyshunoslik, shu jumladan o'zbek tilshunosligini o'rganish jadal sur'atlar bilan rivojlanadi. Ma'lumki kontrativ lingvistik nisbatan yangi yo'nalish hisoblansada, tillarni chog'ishtirish qadim zamonlardan, odamlar boshqa til egalari bilan muloqatga kirishga majbur bo'lgandan boshlab vujudga kelgan<sup>1</sup>.

O'zbek tilshunosligida Alisher Navoiy chog'ishtirma (kontrativ) tilshunosligining otasi (asoschisi hisoblanadi)<sup>2</sup>.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini Alisher Navoiyning XV asrda yozgan "Muhokamat ul lug'atayn" asarida turkiy, hamda fors tillarini chog'ishtirma asosida o'rgailishi haqidagi ma'lumot, bularning isboti hisoblanadi. Alisher Navoiydan keyin uning zamondoshi bo'lgan Bobur ham ushbu tillarni, ya'ni o'zbek, fors, arab tillarini mukammal bilishga harakat qildi. Buyuk sarkarda, tarixnavis olim, o'z asarida turkiy, forsiy va arabiy tillarga xos rang –barang qo'llangan va so'zlarning, omonim, antonim ma'nolarida ishlatilishi asarning mazmuniga ham kerakli hissa qo'shadi.

Asarda forscha sodda, birikmali, daraja ko'rsatgichi bilan kelgan sifat turkumiga oid so'zlar bilan bir qatorda forscha qo'shma sifatlar haqida ma'lumot berishga harakat qilingan.

Murakkab sifatlar affikslar vositasi orqali emas, balki sintaktik so'zlarning birikuvi va sintaktik morfologik (ya'ni so'zlarning birikuvi va + affikslar) usuli bilan ham yasaladi<sup>1</sup>.

Biz bu maqolada sintaktik – morfologik usulda yasalgan, ya'ni faqat forscha so'zlar yordamida yasalgan, ya'ni faqat forscha so'zlar yordamida yasalgan sifat turkumiga doir so'zlarga e'tibor beramiz. Bu usulda yasalgan sifatlar guruhiga: a) qo'shma sifatlar; b) birikmali yoki tizma sifatlar; va juft sifatlar kiradi. Bu ishda "Boburnoma"da qo'llangan qo'shma, birikmali yoki juft sifatlar haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.

1. Qo'shma sifatlar komponentlarning qaysi so'z turkumidan bo'lishi va ularning sintaktik aloqalari jihatidan guruhlariga ajratib o'rganish mumkin.

1 Suso'v I.P. Istoriya yakvhoznaniga M.AST: mostok-zapev 2006 sh. 9

2 Nurmanov A Tanlangan asarlar II jild Toshkent Akademiyasi 2012-yil 299-bet.

1 G'.A. Abdurahmonov. O'zbek tili gramatikasi. O'zbekiston. "Fan" nashriyoti Toshkent 1975. I qism 288-bet

2. Ikki tub soʻzdan tashkil topgan ot+ot, ot+sifat, sifat +ot, sifat+sifat jihatiga eʼtibor beramiz. Biz quyidagi misollarda foscha feʼllar yordamida yasalgan qoʻshma feʼllar hafida toʻxtalamiz. Masalan: doshton – bor boʻlmoq, ega oʻlmoq feʼlining hozirgi zamon asosi “dor” – bor yoki sifat yasvchi qoʻshimcha –li maʼnolarida sifat yasashi mumkin: - Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Margʻinoniydur(7-bet).

- Ehtimom bila qalʼadorliqga mashgʻul boʻldi (18-bet) Asarda (a+f) xabardor (146-b), mulkdor (155-b) kitobdor (157-b), shakdor (99-b), rikabdor (217-b), muhrdor (208-b), beldor (265-b), sardor (153-b), jondor (270-b) soʻzlar asosan (oʻ+t) (t+t) qolipida ishlatilib, bu qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar oʻzakdan anglashilgan sifatlar yasashga xizmat qilgan va ayrim holatlarda ot vazifasida ham kelishi mumkin.

Asarda sifat va feʼl turkimiga doir soʻzlardan yasalgan qoʻshma sifatlar ham mavjud. Masalan, guftan soʻzlamogʻ, gapirmogʻ, aytmogʻ feʼliga doir hozirgi zamon asosi “qoʻy” soʻzi ham sifat turkimiga doir sifatlar yasalishida qatnashgan forscha + forscha qolipidagi soʻz birikmalari ishtirok etgan. Masalan:

- Fahshgoʻy va badzabon kishi edi (157-b).

- Qambaʼr Ali moʻgʻul kim, zikri mugarrar kelibon, parishon goʻy kishi edi. (112-bet). Diqqat bilan guftugogʻ qilmoq 160-b

- Yoqa yerda ulgʻoygʻon uchun bir nima rustoiy durusht goʻyroq edi (94-bet), purgoʻy va parishongoʻy edi. (12-bet)

- Guftugogʻ (226-bet), suxangoʻy (b.q)

- Yana Abdullo masnaviygoʻy edi (163-b)

- Bu jins suxangoʻy boʻlmas (255-b)

Yuqoridagi jummalarda goʻy – gapir, soʻzla, ayt kabi sinonim maʼnolarda ot-feʼl fahshgoʻy, suxangoʻy, sifat +feʼl shaklida parishongoʻy, durushtgoʻy, badzamon, masnavigoʻy yomon soʻzlaydigan tilli yomon kishilarni bildiruvchi qoʻshma sifatlar yasaydi. Baʼzan ayrim gaplarda ushbu soʻzlarning oʻzbekcha variantini bergan. Bu soʻz yordamida yasalgan soʻzlarni asarda koʻp uchratish mumkin.

Fors tilida hozirgi zamon fe'l negizi uch xil yo'l bilan yasaladi, birinchi fe'lining noaniq formasidan – dan, -idan qo'shimchalarini olib tashlash, ya'ni xo'rdan-yemoq, xor –ue, ich, davidan – yuqouoq – dav-yugur, pursidan so'ramoq, purs-so'ra va boshqalar "Ikkinchi shakli" shundaki.

Biz ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilida ko'p qo'llangan – band (vand) –bog'la, navis-yoz, kash-tort, chek, chiz, bor (-vor), tarosh –yo'n, tekisla, tozala, qaro'jo'ni, ek, -chi affiksi, xon-o'qi, soz –sorla, yasa, qur, xoh-xohla –ista va boshqalar haqida ma'lumot bermadik. Garchi hozirgi o'zbek tilida kam +mahsul bo'lgan fe'l turkumiga doir so'zlar haqida ma'lumot beramiz. masalan, nishastan–o'tirmoq fe'lining hozirgi zamon negizi nishin – o'tir so'zi bir necha joyda qo'shma so'z sifatida qo'llangan.

- Shovdor tumanining dorug'anishini uldur, olilgay (58-b).

- Andijon viloyatining sahronishinidin bir chakchak elidur (31-b).

Shunday qilib sahronishin cho'lda o'tiruvchi, yashovchi (125-b), (128-b), qarajo'nishini (153-b), sarhadnishin (77-b), dehnishin (87-b), dorug'anishin (120-b), shahnishin (170-b), podshohnishin (218-b), hokimnishin kabi so'zlar qo'llanilib – nishin o'tir so'zi, asosan ot turkumiga tegishli so'zlar bilan qo'shilib qo'shma murakkab sifatlar va bazan ot turkumiga doir so'zlar yasaganini ko'ramiz. Nishastan – nishin so'zi o'zbek tilida o'tirmoq –o'tir, qo'nmoq –qo'nib kabi ma'nolarda ishlatiladi. Fors tilida esa faqat nishast – o'tiridi degan so'z ishlatiladi. Zadan – urmoq fe'lining hozirgi zamon asosi "zan" so'zi ham quyidagi so'zlar tarkibida kelib sifatga va bazan ot turkumiga doir so'zlar yasaydi. – turkman hazorasi anvo beadabliklar va rakzanliklar qilib edilar (144-b), kordzan (73-b), rakzan (177-b), zarbzan (241-339-b), farzandi zarbzan (335-b). Yuqorida ko'rsatilgan "zan" -ur so'zi ham o'zbekcha so'zlar tarkibida emas balki faqat forscha + forscha, forscha + arabcha, qolipida ishlatilgan.

Ayrim so'zlarda fel+fel qolipida kelib sifat turkumiga doir so'zlar yasaydi. Masalan, notavaonbin va kajxulq kishi edi (143-b). Ushbu jumlada tavonistan – kuchi yetadigan, ishlarini bajara oladigan, qo'lidan ish keladigan manoda fos tilida ishlatiladi. Tavonistan fors tilida modal fe'l sifatida qo'llaniladi tavon ushbu fe'lining hozirgi zamon asosi. Bu so'zga sifat yasovchi no- qo'shimchasi qo'shilib notavon

kuchsiz, ish qilolmaydigan, nogiron kabi sifat ma'nosini anglatuvchi so'z sifatida ishlatiladi, bin so'zi esa didan- ko'rmoq felining hozirgi zamon negizi hisoblanib notavonbin yomon qarash, badbin yomonlikni ko'zlovchi ma'nolari qo'llangan.

Asarda ko'p qo'llangan, ko'proq sinonim ma'nolarda ishlatilgan taroshidan – yo'nmoq, tozalamoq, tekislamoq kabi ma'nolarni anglatib, qo'shma fe'llar tarkibida ot, sifat ma'nolarini anglatuvchi so'zlar tarkibida qo'llaniladi. "Tarosh" so'zi ham o'zbekcha, ham forscha so'zlarga qo'shib ayrim hollarda so'zlar alohida, alohida so'z sifatida ishlatilgan. Masalan, yerini yakpora toshdin tarosh qilgaylar (312-b),

- Quyrug'i hujralarida muazzam toshdin butlar tarosh qilibdurlar (316-b). O'zbekcha so'zlar bilan kelganda forscha sifatdosh, o'tgan zamon sifatdoshi ma'nosida ham qo'llangan. Masalan:

- Ulug'larning imoratlarini takalluf bila taroshida toshdin qilibdur (308-b), bu gapda taroshida so'zi yo'nilgan, poklagan, qirqgan ma'nolarida ishlatiladi.

Forscha+forscha qolipida yorilgan so'zda kasb egasini bildiruvchi ma'noda berilgan.

- Ustad shoh Muhammad sangtaroshga buyurdikim (113-b)

- Yakpora toshdin sutanamo tarosh qilg'aylar (313-b)

- Bu imoratlar tamom sangi taroshindandur (313-b)

Taroshiida so'zi ham o'zbekcha, ham forscha so'zlar bilan kelib hamma fe'llar kabi, yoki forscha o'tgan zamon sifatdoshi sifatida juda ko'p so'zlar tarkibida kelib, murakkab sifat va ot ma'nosini anglatuvchi so'z sifatida qo'llangan.

Asarda ko'p qo'llangan so'zlarda andoxtan –otmoq, tashlamoq, uloqtirmoq, solmoq ma'nolarini anglatuvchi andoz – ot, tashla, uloqtir, sol ma'nolarini anglatuvchi so'z hisoblanadi. Masalan – otmoq ma'nosida; - Tufakandozlar ham tubang otmoqqa bisyor jalodat ko'rsatib yaxshi otdilar (219-b). Bu gapda yozuvchi tufakandoz so'zini tufak otmoq so'zi bilan fors va o'zbek tilida qo'llangan.

Yoki solmoq ma'nosida quyidagi gapda ushbu so'zni qo'llaganini ko'ramiz. – Arzg'a yettikim, cherik eli Behra elig'a besarlig' va dastandozliqlar qiladurlar (206-b). Bu gapda qo'l solmoq + dast andoz ya'ni davlat mablag'larini o'g'irlab oluvchi

ma'nolarida ham qo'llangan. Bu kabi so'zlar karkandoz (271-290-b), dastandoz (165-b), tirandoz (182-b), va boshqalar juda ko'p joyda qo'llangan.

Asarda yuqoridagi qo'shma so'zlarda qo'llangan forscha fillar bilan juda ko'p sermahsul va kammahsul forscha fe'l turkumiga doir so'zlar qo'shma so'zlar tarkibida qatnashib asosan sifat va ba'zan ot bajargan ma'nolarda ham ishlatilgan.

Xulosa bu kabi fe'l turkumiga tegishli so'zlarning aksariyati hozirgi o'zbek tilida kamroq uchraydi. Asarda yuzdan ortiq forscha fe'llardan yasalgan qo'shma sifatlar mavjud. Bu Zahiriddin Muhammad Boburning faqat turkiy so'zlarni emas, balki forscha so'zlarni ham mukammal bilgan va ularni so'z yasalishiga to'g'ri e'tibor bergan.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Abdusamatov M. "Fors tili", Toshkent. "O'ituvchi" 2007-yil*
2. *Xalilov I "Fors tili", Toshkent. "O'ituvchi" 2007-yil*
3. *Shamsiyev P "Boburnoma" Toshkent. "Yulduzcha" 1989-yil*
4. *Kollektiv Farhangi zaboni tojiki I –tom Moshva, Ishustvo, 1969.*
5. *O'zbek tilining izchil lug'ati O'ZME 2006-yil*
6. *R.Jumaniyozov "Eski o'zbek yozuvi" Toshkent 2013-yil.*
7. *F.A.Abdurahmonov Sh.Sh. Shoabdurahmonov "O'zbek tili gramatikasi" 1985 yil.*